UO‘K 811.134.2+378.016

TALABALARNING ISPAN TILI BO‘YICHA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH MASALASI

A.A. Tkacheva

Maqolada ispan tilida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion didaktik vositalardan foydalanish kontekstida o‘qituvchi rolining o‘zgarishi o‘rganilgan. Shuningdek, innovatsion usullarning o‘quv jarayoniga ta’siri va talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun ushbu vositalardan samarali foydalanishda o‘qituvchining roli ko‘rib chiqilgan. Innovatsion didaktik vositalarning talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-madaniy kompetentlik, o‘qituvchining roli, innovatsion didaktik vositalar, interfaol ta’lim, multimedia resurslari*.

В статье исследуется изменение роли преподавателя в контексте использования инновационных дидактических средств для развития социокультурной компетенции студентов по испанскому языку. Рассмотрены влияние данных инновационных методов на процесс обучения и роль преподавателя в эффективном использовании данных средств для развития социокультурной компетенции студентов. Проанализировано влияние инновационных дидактических средств на развитие социокультурной компетенции студентов.

Ключевые слова: *социокультурная компетенция, роль преподавателя, инновационные дидактические средства, интерактивное обучение, мультимедийные ресурсы.*

Kirish

Ta’lim ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli dunyoda samarali muloqot qila oladigan global fuqarolarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, chet tilini, xususan, ispan tilini dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biri sifatida o‘rganish nafaqat muloqotni rivojlantiradi, balki turli mamlakatlar va xalqlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga oid bilimlarni chuqurlashtiradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik tilni o‘qitishning asosiy yo‘nalishi sifatida turli madaniy kontekstlarni idrok etish, tahlil qilish va ularga moslashish qobiliyatini, shu jumladan, madaniy me’yorlar, qadriyatlar, urf-odatlar, san’at, tarix va ijtimoiy qonun-qoidalarni tushunishni o‘z ichiga oladi. Bunday kompetentlikni shakllantirish uchun zamonaviy ta’lim usullari va innovatsion didaktik vositalar zarur.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalari va zamonaviy ta’lim platformalaridan foydalanish ta’lim landshaftini, shu bilan birgalikda til va madaniyatni o‘qitish jarayonida o‘qituvchining rolini o‘zgartiradi. Ushbu jarayon o‘qitishning an’anaviy yondashuvlarini va o‘qituvchining rolini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ispan tilida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion didaktik vositalardan foydalanish sharoitida o‘qituvchining rolini o‘zgartirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Zamonaviy o‘qitish usullari va innovatsion vositalar namunalarini, shuningdek, ushbu

o‘zgarishlarning o‘quv jarayoni samaradorligiga va talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

D.Duglas va S.Freyzer [1] zamonaviy texnologiyalar va innovatsion o‘qitish usullari o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi rolini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkinligini ta’kidlaydilar. S.E.Iton zamonaviy ta’lim sharoitida o‘qituvchining ustoz, murabbiy va o‘qituvchi sifatidagi o‘rni masalalarini tadqiq qiladi [2]. D.Atay, G.Kurt, Z.Kemlibel, P.Ersin, O.Kaslioglu tadqiqotida talabalarning chet tillarini o‘rganishida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish va bunda madaniy jihatlar muhimligini qayd etilgan [3]. R.Kern chet tillarini o‘qitishda multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini o‘rgangan [4]. D.Vlaxopulos, A.Makri [5] interfaol darslar va virtual ekskursiyalar ispan tili va madaniyatini o‘rganish jarayonini qanday boyitishi mumkinligini ko‘rsatib, tadqiqot natijalarini taqdim etadi. K.Guaketa, A.Kastro-Garses [6] ispan tili va madaniyatini o‘rgatishda ta’lim dasturlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni tadqiq etganlar.

Yuqoridagi tadqiqotlarda berilgan qarashlarga asoslanib, ijtimoiy-madaniy kompetentlik lisoniy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, talabalarning o‘rganilayotgan tilda so‘zlashadigan jamiyatlarning madaniy xususiyatlarini tushunish va idrok etish qobiliyatini anglatadi, deb ta’riflash mumkin. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik jihatlari 1-jadvalda keltirilgan [2, 3, 6].

1-jadval

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning jihatlari

T/r	**Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning jihatlari**	**Mazmuni**
1	Madaniy me’yorlar va qadriyatlarni tushunish	Ijtimoiy-madaniy kompetentlik o‘rganilayotgan tildan foydalanadigan mamlakatlarning urf-odatlari, an’analari, bayramlari, tarixi va san’ati kabi madaniy xususiyatlarni bilish va tushunishni qamrab oladi.
2	Muloqot qobiliyatlari	Boshqa madaniyatdagi til sohiblari bilan samarali muloqot qilish ularning fikrlash tarziga, xushmuomalalik darajasiga va boshqa ijtimoiy-madaniy omillarga moslashish qobiliyatini talab qiladi.
3	Madaniyatlararo moslashish qobiliyati	Talabalar immigratsiya doirasida ham, chet ellik suhbatdoshlar bilan o‘zaro muloqotda ham yangi madaniy muhitga moslasha olishlari kerak.

Shubhasiz, o‘qituvchi ispan tilini o‘rganayotgan talabalar o‘rtasida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayondagi uning funksiyalari 2-jadvalda keltirilgan [1, 3, 5].

2-jadval

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda o‘qituvchining funksiyalari

T/r	**O‘qituvchining funksiyalari**	**Mazmuni**
1	Madaniy materiallarni o‘qitish	O‘qituvchi talabalarga ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlar madaniyati, shu jumladan, ularning tarixi, san’ati, madaniy tadbirlari va urf-odatlari to‘g‘risida asosiy bilimlarni berishi kerak.
2	Tanqidiy fikrlashni shakllantirish	O‘qituvchi talabalarga turli mamlakatlarning madaniy jihatlarini tahlil qilish va taqqoslashda, farqlar va o‘xshashliklarni tushunishda yordam berishi kerak.

3	Madaniyatlararo muloqot amaliyoti	O‘qituvchi madaniyatlararo muloqot amaliyoti uchun muhit yaratishi mumkin. Bu yerda talabalar ispan tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
4	Innovatsion didaktik vositalardan foydalanish	Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanish talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish tajribasini sezilarli darajada boyitishi mumkin.

Материал ва усуллар

Tadqiqotda Samarqand davlat chet tillar instituti ispan tilini o‘rganuvchi talabalari hamda ispan tili o‘qituvchilari ishtirok etgan. Ishtirokchilarni tanlashning asosiy mezonlari til kompetentligi darajasi va tadqiqotda faol ishtirok etishga tayyorligidan iborat bo‘lgan. Tanlangan talabalarni turli akademik ko‘rsatkichlar va ispan tilini o‘rganish tajribasiga ega 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan 50 nafar talaba tashkil etdi. Talabalar ispan tilini bilish darajasi bo‘yicha teng taqsimlangan guruhlarga bo‘lindi (boshlang‘ich, o‘rta, ilg‘or). O‘qituvchilar soni 12 nafarni tashkil qildi.

Dastlabki ma’lumotlarni to‘plash uchun quyidagi usullardan foydalanilgan:

– talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan innovatsion didaktik vositalar samaradorligini baholash va o‘quv jarayonida o‘qituvchining rolini o‘zgartirishga qaratilgan so‘rovlar; so‘rovnomaga muloqot qobiliyatlari darajasi, o‘quv jarayonidan qoniqish va ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyatini baholashga oid savollar kiritilgan;

– innovatsion didaktik vositalarni joriy etish va ularning o‘qituvchi roliga ta’siri to‘g‘risida fikr-mulohaza olish maqsadida o‘quv jarayonini kuzatish va o‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘tkazish.

Talabalar va o‘qituvchilarning innovatsion didaktik vositalardan foydalanishdagi qoniqishlarini va ularning o‘qituvchi rolini o‘zgartirishga bo‘lgan munosabatini baholash uchun so‘rov o‘tkazildi.

Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar innovatsion vositalarni qo‘llash va o‘qitish tajribasi asosida o‘qituvchi rolini o‘zgartirish haqidagi fikrlar berilgan anketalarni to‘ldirishdi. So‘rovnomada bajarilgan vazifalar, motivatsiya darajasi, ispan madaniyati va madaniyatlararo sezgirlikni tushunish bo‘yicha savollar mavjud edi. Javoblarning Likert shkalasi bo‘yicha tahlil qilinishi fikrlarga rozilik yoki norozilik darajasini baholashga imkon berdi.

O‘qituvchilar so‘rovnomada innovatsion didaktik vositalardan foydalanish samaradorligi va ularning rolini o‘zgartirish bo‘yicha fikrlar berilgan anketalarni to‘ldirishdi. Ular yangi uslublar talabalarga ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga va topshiriqlarni bajarishga, shuningdek, yangi yondashuvlarni hisobga olgan holda dars o‘tkazishga bo‘lgan munosabatga oid fikrlarni baholadilar.

Olingan ma’lumotlarni qayta ishlash anketalarga javoblarni statistik tahlil qilishni o‘z ichiga olgan. Talabalar va o‘qituvchilarning qoniqishi va munosabatini baholash uchun o‘rtacha qiymat, standart og‘ish va korrelyatsiya koeffitsiyentining hisob-kitoblari o‘tkazildi. Ushbu ma’lumotlar innovatsion usullarning samaradorligini obyektiv baholashni aniqlash va o‘qituvchining rolini o‘zgartirish uchun qo‘llangan.

Tadqiqot doirasida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan turli xil innovatsion didaktik vositalardan foydalanildi:

– turli madaniy kontekstlarda ispan tilidagi har xil muloqot holatlarini o‘z ichiga olgan interfaol video materiallar va audio yozuvlar;

– talabalarga virtual muhit orqali aloqa va o‘zaro madaniy ta’sir ko‘nikmalarini o‘rgatish imkonini beruvchi veb-ilovalar va onlayn trenajyorlar;

– ijtimoiy-madaniy kompetentlik va til ko‘nikmalaridan foydalanishni talab qiladigan haqiqiy muammolarni hal qilishda birgalikda ishlashga imkon beradigan loyiha topshiriqlari.

Natijalar

Ispan tilini o‘rganuvchi talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion didaktik vositalardan foydalanish sharoitida o‘qituvchining rolidagi o‘zgarishlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilamiz.

1. *O‘qituvchi rolini o‘zgartirish*. Tadqiqot davomida biz o‘qituvchi rolida sezilarli o‘zgarishlarni topdik. Ushbu holat bir necha jihatlarda namoyon bo‘ldi. Birinchidan, o‘qituvchilar endi ma’lumot va bilim manbai sifatida harakat qilmaydilar, balki talabalarning tilni o‘rganish jarayonida mustaqil va faol ishtirok etishlari uchun qulay muhit yaratadigan o‘quv faoliyatiga ko‘maklashuvchi sifatida harakat qila boshladilar. Ular talabalarning ijodiy fikrlash va o‘zini o‘zi boshqarishini rivojlantirishga ko‘maklashib, muammolarni mustaqil hal qilishga undashdi.

Ikkinchidan, o‘qituvchilar o‘quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilishni amalga oshirib, moderator rolini o‘z zimmalariga oldilar. Ular talabalarga yangi innovatsion vositalar bilan ishlashda yordam berishdi, kerakli fikr-mulohazalarni taqdim etishdi, munozaralar va hamkorlikdagi loyihalarni boshqarishdi.

2. *Innovatsion didaktik vositalarning samaradorligi*. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion didaktik vositalardan foydalanish talabalarning ispan tilidagi ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir qiladi. Bunday vositalardan foydalangan holda talabalar madaniyatlararo sezgirlikning yuqori darajasini, yangi madaniy kontekstlarga moslashish qobiliyatini va ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlar vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun tildan foydalanish qobiliyatini namoyish etdilar.

3. *Talabalar va o‘qituvchilarning qoniqishi*. Tadqiqot davomida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida yangi texnika va innovatsion vositalarga ijobiy munosabatni baholash uchun so‘rovnomalar o‘tkazildi. Aksariyat talabalarning ta’kidlashicha, bu yondashuv ispan madaniyatini chuqurroq tushunishga va tilni o‘rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilar innovatsion vositalardan foydalanish qulayligi va ularning talabalar uchun foydaliligini ta’kidlab, ijobiy fikr bildirishdi.

Quyida so‘rovnomada mavjud bo‘lgan savollarni hamda talabalar va o‘qituvchilar javoblarining foizli nisbatini keltiramiz (3–4-jadvallar).

3-jadval

Talabalar uchun so‘rovnoma savollari va natijalar

T/r	Savollar	Javoblar, foizda
1.	Ispan tilini o‘rganish uchun innovatsion didaktik vositalardan foydalanishdan qoniqish darajasini baholang.	– juda qoniqarsiz: 5% – qoniqarsiz: 15% – neytral: 30% – qoniqtirgan: 40% – to‘liq qoniqtirgan: 10%
2.	Ijtimoiy-madaniy kompetentligingizni rivojlantirish uchun quyidagi innovatsion vositalardan qaysi birini eng foydali deb bilasiz?	– interaktiv onlayn darslar: 60% – virtual ekskursiyalar: 30% – multimedia materiallaridan foydalanish: 45% – ispan tili sohiblari bilan qo‘shma loyihalar: 25%

3.	Sizningcha, innovatsion didaktik vositalardan foydalanish jarayonida o‘qituvchingizning roli o‘zgarganmi?	– juda o‘zgargan: 35% – o‘zgargan: 45% – biroz o‘zgardi: 15% – o‘zgarmadi: 5%
4.	Innovatsion vositalardan foydalanishning madaniyatlararo sezgirligingiz va turli madaniy kontekstlarga moslashish qobiliyatingizga ta’sirini baholang.	– juda kam ta’sir qilish: 5% – kam ta’sir qilish: 10% – o‘rtacha ta’sir: 30% – yuqori ta’sir: 40% – juda yuqori ta’sir: 15%

4-jadval

O‘qituvchilar uchun so‘rovnoma savollari va natijalar

T/r	Savollar	Javoblar, foizda
1.	Innovatsion didaktik vositalardan foydalanish talabalarga ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yordam berish darajasini baholang.	– juda kam yordam: 5% – kam yordam: 10% – o‘rtacha yordam: 30% – yuqori yordam: 50% – juda yuqori yordam: 5%
2.	Innovatsion didaktik vositalardan foydalanish jarayonida sizning rolingiz o‘zgarishini qanday baholaysiz?	– juda o‘zgargan: 40% – o‘zgargan: 35% – biroz o‘zgardi: 15% – o‘zgarmadi: 10%
3.	Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun qaysi innovatsion vositalarni eng samarali deb bilasiz?	– interaktiv onlayn darslar: 70% – virtual ekskursiyalar: 20% – multimedia materiallaridan foyda-lanish: 45% – ispan tili sohiblari bilan qo‘shma loyihalar: 30%
4.	Innovatsion vositalardan foydalanishning talabalar motivatsiya darajasiga ta’sirini va ularning ispan tilidagi topshiriqlarni bajarish qobiliyatini baholang.	– juda kam ta’sir qilish: 5% – kam ta’sir qilish: 10% – o‘rtacha ta’sir: 35% – yuqori ta’sir: 40% – juda yuqori ta’sir: 10%

Shunday qilib, tadqiqot natijalari talabalarning ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish uchun innovatsion didaktik vositalardan foydalanish sharoitida o‘qituvchi rolining o‘zgarishini tasdiqladi. O‘quv maqsadlariga erishishda bunday vositalarning samaradorligi, talabalar va o‘qituvchilarning qoniqishi tasdiqlandi.

Muhokama

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish o‘qituvchilarning faol va malakali ishtirokini talab qiladi, ularning madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarda yanada moslashuvchan va ishonchli bo‘lishiga yordam beradi. Zamonaviy ta’lim o‘qitish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan o‘qituvchi rolidagi o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchining rolini o‘zgartirishning asosiy tendensiyalari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

O‘qituvchi rolini o‘zgartirish tendensiyalari

T/r	O‘qituvchi rolini o‘zgartirish tendensiyalari	Mazmuni
1	Murabbiy roliga o‘tish	An’anaviy bilim manbai rolidan talabalarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi murabbiy roliga o‘tgan o‘qituvchi talabalarga o‘quv maqsadlarini aniqlashda va ushbu maqsadlarga erishish strategiyasini ishlab chiqishda yordam beradi.
2	Texnologiyalar integratsiyasi	O‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanilishi an’anaviy o‘qitish usullarini qayta ko‘rib chiqish, yanada interfaol va innovatsion darslarni yaratishga imkon beradi.
3	Ta’limni individuallashtirish	O‘qituvchi har bir talaba uchun o‘quv materiali va o‘qitish metodikasini moslashtirish orqali ularning individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini hisobga oladi.
4	Tadqiqot faoliyatini rivojlantirish	O‘qituvchilar ta’lim va tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilinib, ularga yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ispan tili va madaniyatining dolzarb tendensiyalarini kuzatish imkonini beradi.
5	Ijtimoiy-madaniy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash	O‘qituvchilar talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, ularga ispan tilining madaniy kontekstini tushunishga va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish zamonaviy pedagogik amaliyotning muhim jihatini ifodalaydi. Ushbu kompetentlikni samarali shakllantirish uchun o‘qituvchilar ta’lim kontekstining xususiyatlari va ta’lim maqsadlarini hisobga olgan holda turli xil yondashuvlardan foydalanishlari kerak. Quyida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga asosiy yondashuvlarni ko‘rib chiqamiz (6-jadval).

6-jadval

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga asosiy yondashuvlar

T/r	Asosiy yondashuvlar	Mazmuni
1.	Kontekstual yondashuv	Ushbu yondashuv ijtimoiy-madaniy kompetentlikni o‘rganish talabalarning haqiqiy ijtimoiy-madaniy konteksti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerakligini anglatadi. O‘qituvchilar boshqa madaniyat vakillari bilan o‘zaro munosabatlarning haqiqiy holatlarini aks ettiruvchi darslar va topshiriqlarni yaratishga intilishlari kerak. Bunday mashqlar talabalarga turli xil madaniy muhitlarni yaxshiroq tushunish va moslashishga yordam beradi.
2.	Kommunikativ yondashuv	Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy jihatlaridan biri turli madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatidan iborat. O‘qituvchilar muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga, shu jumladan, tinglash, savollar berish va turli madaniy guruhlardagi odamlar bilan muloqot qilishda empatiya bildirishga e’tibor qaratishlari kerak.

3.	Tanqidiy yondashuv	Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni o‘rgatish madaniy hodisalar va stereotiplarni tanqidiy tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar talabalarga tanqidiy fikrlash va madaniy xurofotlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishlari kerak. Bu talabalarga turli madaniyatlarni chuqurroq tushunish va bag‘rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi.
4.	Tadqiqot yondashuvi	Talabalarni ijtimoiy-madaniy jihatlar bilan bog‘liq o‘z tadqiqotlari va loyihalarini amalga oshirishda qo‘llab-quvvatlash madaniy farqlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. O‘qituvchilar talabalarni madaniyatning qiziq tomonlarini o‘rganishga va olgan bilimlarini boshqalar bilan baham ko‘rishga undashlari mumkin.

Ushbu yondashuvlarni birlashtirish, ularni aniq ta’lim maqsadlari va kontekstiga moslashtirish talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni yanada samarali shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar va o‘qitish usullarining rivojlanishi bilan o‘qituvchilar talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydigan innovatsion didaktik vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ta’lim sohasidagi yangiliklar zamonaviy ispan tilini o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion didaktik vositalar o‘quv jarayonini takomillashtirish va talabalarning til tajribasini boyitishga qaratilgan innovatsion texnika va texnologiyalardan iborat bo‘lib, jumladan, ularning quyidagi turlari mavjud (7-jadval).

7-jadval

Innovatsion texnologiyalar

T/r	Innovatsion texnologiyalar	Mazmuni
1.	Mobil ilovalardan foydalanish	Zamonaviy dunyoda mobil ilovalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Ispan tilini o‘rgatish sohasida *Duolingo*, *Memrise* va *Babbel* kabi ko‘plab ilovalar mavjud bo‘lib, ular interfaol darslar, viktorinalar va grammatik mashqlarni taklif qiladi. Talabalar o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqt va joyda o‘rganishlari mumkin, bu esa muntazam va tizimli amaliyotga yordam beradi. Bunday ilovalarning samaradorligini baholash odatda talabalarning tilni bilish darajasiga va o‘rganilgan bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatiga asoslangan.
2.	Virtual darslar va almashinuvlar	Virtual darslar va almashinuvlardan foydalanish talabalarga ispan tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish va haqiqiy madaniy muhitga sho‘ng‘ish imkonini beradi. Virtual reallik (VR) vositalari va onlayn almashish platformalari (masalan, *Tandem*) talabalarga ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlardan kelgan odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bunday faoliyat ularning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi.
3.	Ijtimoiy media va veb-resurs-lardan foyda-lanish	*YouTube*, *Instagram*, ispan yangiliklar saytlari kabi ijtimoiy media va veb-resurslar ispan tilida ko‘plab asl materiallarni taqdim etadi. O‘qituvchilar tilni o‘rganish, madaniy kontekstlarni tahlil qilish va ispan tilida so‘zlashadigan jamoalar bilan onlayn muloqot qilish uchun talabalarni ushbu manbalardan foydalanishga rag‘batlantirishlari mumkin.

4.	Interfaol onlayn platformalar	Elektron ta’lim resurslari, shu jumladan, veb-ilovalar va ispan tilini o‘rganish platformalari talabalarga interfaol o‘quv materiallari, topshiriqlar va testlardan foydalanish orqali ispan tilida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy onlayn platformalar madaniyatlararo o‘zaro ta’sirning asl holatlariga o‘xshash interfaol kurslar va o‘quv modullarini yaratish imkoniyatini beradi. O‘qituvchilar ushbu platformalardan talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan virtual muhit va vazifalarni yaratish uchun foydalanishlari mumkin.
5.	Virtual ekskursiyalar	Texnologik innovatsiyalar talabalar ispan madaniyati va haqiqiy til vaziyatlariga sho‘ng‘ishlari mumkin bo‘lgan virtual muhitlarni yaratishga imkon beradi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga va ispan tili kontekstini tushunishni yaxshilashga yordam beradi. O‘qituvchilar talabalarga turli madaniyat va tillardan foydalanish imkoniyatini berish uchun video, audioyozuvlar va virtual ekskursiyalardan foydalanishlari mumkin. Ushbu vositalar o‘qituvchilarga vizual va interfaol darslar yaratishga imkon beradi.
6.	Rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar	Innovatsion usullar talabalarga turli madaniy ssenariylarga sho‘ng‘ish imkonini beruvchi virtual o‘yinlar va simulyatsiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar tomonidan ushbu simulyatsiyalarni talabalar reaksiyalarini baholash, ularning xatti-harakatlarini muhokama qilish orqali boshqarish mumkinligi madaniyatlararo jihatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.
7.	Ta’lim o‘yinlari va multimedia resurslari	Multimedia va ta’lim o‘yinlari qiziqarli va jalb qiluvchi darslarni yaratadi, talabalarni tilni madaniy kontekstning bir qismi sifatida faol o‘rganishga va idrok etishga undaydi.

Innovatsion ta’lim platformalari ma’lumotlarni to‘plash va talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirishdagi yutuqlarini tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. O‘qituvchilar ushbu tahlildan o‘quv jarayonini yanada yaxshilash va moslashtirilgan fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun foydalanishlari mumkin.

Bir qator omillar asosida baholanishi mumkin bo‘lgan innovatsion didaktik vositalarning samaradorligini tahlil qilishni ko‘rib chiqamiz (8-jadval).

8-jadval

Innovatsion didaktik vositalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

T/r	Samaradorlik ko‘rsatkichi	Mazmuni
1.	Talabalarning akademik muvaffaqiyati	Innovatsion vositalardan foydalangan holda kurslarda qatnashgan talabalarning muvaffaqiyatini baholash an’anaviy sinflarda o‘qiganlarning muvaffaqiyati bilan taqqoslanadi. Muvaffaqiyatni baholash imtihon natijalari va talabalarning o‘rganilgan bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyati bilan o‘lchanishi mumkin.
2.	Ta’limga qiziqish va motivatsiya	Talabalarning motivatsiya darajasi muhim jihatdir. Mobil ilovalar va virtual almashinuvlar kabi innovatsion vositalar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va sermazmun qilishi mumkin.
3.	Ijtimoiy-madaniy kompetentlik	Talabalarning innovatsion vositalardan foydalanishш natijasida olingan ijtimoiy-madaniy kompetentligining rivojlanishini baholash ularning ispan madaniyati vakillari bilan muloqot qilish va madaniy kontekstning turli jihatlarini tushunish qobiliyatini tahlil qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

4.	Fikr-mulohaza va ma’lumotlarni tahlil qilish	O‘qituvchilar innovatsion vositalar samaradorligini baholash uchun talabalar ma’lumotlari va fikr-mulohazalaridan foydalanishlari mumkin. Bu talabalarning tilni bilish darajasi, reaksiyalari va ularning o‘qishdan qoniqish darajasini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, ispan tilini o‘qitishda innovatsion didaktik vositalarni joriy etishning amaliy jihatlari ularning samaradorligini va talabalarning til va ijtimoiy-madaniy kompetentliklarini rivojlantirishga qo‘shgan hissasini aniqlash uchun tizimli baholash va tahlil qilishni talab qiladi. Ta’limda innovatsion didaktik vositalardan foydalanish o‘qituvchining rolini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin. Bu rolga ta’sir ko‘rsatadigan ba’zi omillar 9-jadvalda keltirildi.

9-jadval

Innovatsion didaktik vositalardan foydalanishda o‘qituvchining roliga ta’sir ko‘rsatadigan omillar

T/r	Omillar	Mazmuni
1.	Texnologiya bo‘yicha tajriba	O‘qituvchi ta’lim dasturlari, onlayn resurslar va texnologik qurilmalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Bunga onlayn kurslarni yaratish va boshqarish, elektron doskalar bilan ishlash, interfaol dasturlardan foydalanish va boshqalar kiradi.
2.	Talabalarga moslashish	O‘qituvchi o‘quv uslublarining xilmaxilligini va talabalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olishi kerak. Ushbu jihat ta’limni individuallashtirish, turli ehtiyojlarga ega talabalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha materiallar yoki vazifalarni taqdim etish qobiliyatini nazarda tutadi.
3.	Yo‘l-yo‘riq berish va qo‘llab-quvvatlash	O‘qituvchi talabalarga nafaqat ma’lumot berishi, balki innovatsion vositalar va resurslardan muvaffaqiyatli foydalanishga o‘rgatishga ham tayyor bo‘lishi kerak. Ushbu faoliyat mustaqil o‘rganish uchun o‘quv qo‘llanmalari va manbalarini yaratishni o‘z ichiga oladi.
4.	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	Innovatsion usullar ko‘pincha talabalarning tahlil qilish, baholash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchi munozaralarni rag‘batlantirishi, provokatsion savollar berishi va talabalarning tahliliy fikrlashini rag‘batlantirishi kerak.
5.	Ta’limni osonlashtirish	O‘qituvchi an’anaviy “bilimlarni uzatuvchi” rolidan o‘quv faoliyatiga ko‘maklashuvchi roliga o‘tadi. Talabalar birgalikda o‘rganishi va muhokama qilishi orqali bir-biri bilan faol muloqotda bo‘ladigan sharoit yaratiladi.
6.	Baholash va fikr-mulohazalar	O‘qituvchi innovatsion vositalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda baholashning yangi usullarini ishlab chiqishi kerak. Shuningdek, u talabalarga o‘z ishlari va faoliyati to‘g‘risida o‘z vaqtida konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etishi kerak.
7.	Innovatsion fikrlash	O‘qituvchi doimiy ravishda o‘quv jarayonini boyitish uchun yangi usul va texnologiyalarni izlashi kerak. Bunga yangi vositalar bilan tajriba o‘tkazish va ta’lim muhitidagi o‘zgarishlarga moslashish kiradi.
8.	Vaqtni boshqarish	Innovatsion vositalardan foydalanish materiallarni tayyorlash va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin. O‘qituvchi o‘qitishda innovatsiyalardan samarali foydalanish uchun o‘z vaqtini muvozanatga solishi kerak.
9.	Refleksiya va o‘z ustida ishlash	O‘qituvchi o‘zining pedagogik amaliyotini muntazam ravishda tahlil qilishi, takomillashtirish uchun muvaffaqiyatli usul va sohalarni aniqlashi kerak. O‘z-o‘zini rivojlantirish va yangi usullarni o‘rganish muhim rol o‘ynaydi.

10.	Hamkasblar bilan hamkorlik	Tajriba almashish va boshqa o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish ta’lim muassasasiga ta’lim innovatsiyalaridan foydalanish bo‘yicha eng yaxshi amaliyot va tajriba almashinuvini ta’minlash orqali yordam berishi mumkin.

Innovatsion didaktik vositalardan foydalanish o‘qituvchidan moslashuvchanlikni, doimiy ishlashga tayyorlikni talab qiladi.

Quyida talabalarning ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion vositalardan foydalanmoqchi bo‘lgan o‘qituvchilar uchun bir nechta amaliy tavsiyalarni taqdim etamiz (10-*jadval*).

10-jadval

Talabalarning ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion vositalardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar

T/r	Amaliy tavsiyalar	Mazmuni
1.	Multimedia resurslaridan foydalanish	Ispan madaniyatining turli jihatlari yoritilgan, jumladan, ispan tili sohiblari bilan suhbatlar berilgan video, audioyozuvlar, multimedia materiallaridan foydalanish, asosiy mavzular va madaniy jihatlarni muhokama qilish bilan birga ispan filmlari va seriallarini tomosha qilishni tashkil qilish talabalarga zamonaviy ispan madaniyati va so‘zlashuv tilini tushunishga yordam beradi. Talabalarni ispan tilida bloglar yoki ijtimoiy media hisoblarini yaratishga undash ularga kundalik muloqot kontekstida tilni o‘rganish va ispan madaniyatini kuzatish imkonini beradi.
2.	Interfaol darslar	Talabalar madaniy muhitga sho‘ng‘ishlari uchun yangiliklar muhokamasi, real vaziyatlarni simulyatsiya qilish va Ispaniya shaharlariga virtual sayohatlarni o‘z ichiga olgan interfaol darslar yaratish, talabalarga ispan muhitiga kirishga yordam beradigan ta’lim o‘yinlari va simulyatsiyalardan foydalanish kerak. Bunday darslar Ispaniyaga sayohatni simulyatsiya qilish yoki ispan madaniyatini aks ettiradigan o‘yin shaklida bo‘lishi mumkin.
3.	Ispan tili sohiblari bilan hamkorlik qilish	Ispan tili sohiblarini mehmon sifatida taklif qilish yoki talabalar ispan tili sohiblari bilan muloqot qilishlari va madaniy xususiyatlar haqida ko‘proq bilib olishlari uchun ular bilan virtual muloqotlar o‘tkazish, ispaniyalik tengdoshlar bilan virtual talabalar almashinuvini tashkil qilish mumkin. Ular ispan tilidagi video qo‘ng‘iroqlar yoki suhbatlar orqali muloqot qilishlari, madaniyat va turmush tarzi haqida ma’lumot almashishlari mumkin.
4.	Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish	Talabalar ispan madaniyati haqidagi taassurotlarini muhokama qilishlari va baham ko‘rishlari mumkin bo‘lgan virtual hamjamiyat yaratish ijtimoiy media guruhi yoki onlayn forum shaklida bo‘lishi mumkin.
5.	Loyihalar va tadqiqotlar	Talabalarga ispan madaniyati xususiyatlarini o‘rganish va taqdim etishni talab qiladigan loyihalarni taklif qilish. Bunday loyihalar tarix, san’at, oshpazlik va boshqa ko‘plab sohalarni o‘rganishni o‘z ichiga olishi mumkin. Talabalarga ispan madaniyati, tarixi yoki urf-odatlari bo‘yicha videolar, taqdimotlar yoki podkastlar kabi multimedia loyihalarini yaratishni taklif qilish ularning tadqiqot qobiliyatlari va til amaliyotiga yordam beradi.
6.	Virtual ekskursiyalar	Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalangan holda virtual ekskursiyalarni tashkil qilish talabalarga muzeylar, tarixiy yodgorliklar va boshqa madaniy joylarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri auditoriyadan o‘rganish imkonini beradi. Masalan, VR ko‘zoynaklaridan foydalangan holda Ispaniya shaharlari yoki muzeylariga “sayohat”qilish va til tajribasini muhokama qilish.

7.	Ilovalar va onlayn resurslardan foydalanish	Ispan madaniyatini o‘rganish uchun qiziqarli va jalb qiluvchi vazifalarni taklif qiladigan ko‘plab ta’lim ilovalari va onlayn resurslar mavjud. Kurs uchun ularning variantlarini ko‘rib chiqish.
8.	Madaniyatlarni taqqoslash	O‘xshashlik va farqlarni ta’kidlash uchun ispan madaniyatini talaba mansub madaniyat bilan taqqoslash yangi ma’lumotlarni yaxshiroq tushunish va kontekstlashtirishga yordam beradi.
9.	Tegishli voqealarni muhokama qilish	Talabalar zamonaviy madaniy tendensiyalarni kuzatib borishlari uchun ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlar bilan bog‘liq dolzarb voqealar va yangiliklarni muntazam ravishda muhokama qilish. Talabalarning konsertlar, ko‘rgazmalar va madaniy festivallar kabi ispan madaniy tadbirlarida qatnashishini qo‘llab-quvvatlash lozim. Bunday faoliyat ularga ispan muhitida haqiqiy muloqot va o‘zaro ta’sir tajribasini taqdim etadi.
10.	Madaniy kompetentlikni baholash	Talabalarni baholashda ularning ispan madaniyatini tushunish va tahlil qilish qobiliyatini e’tiborga olish. Bunga insho yozish, taqdimotlar va munozaralarda qatnashish kiradi.

Xulosa

Innovatsion didaktik vositalardan foydalanish o‘qituvchilarga talabalarning ijtimoiy-madaniy vakolatlarini yanada samarali va interfaol ravishda rivojlantirishga imkon beradi va shu bilan birgalikda ulardan yangi texnologiyalar va o‘qitish usullariga moslashishni talab qiladi. Bunday kontekstda o‘qituvchining roli o‘quv materiallarini yaratish va nazorat qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘quv jarayonida talabalarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

Texnologiyaning rivojlanishi va onlayn resurslarning mavjudligi bilan ispan tili o‘qituvchilari talabalarga turli xil ta’lim materiallaridan foydalanish imkoniyatini berishlari mumkin. Biroq o‘qituvchining roli individual ta’limni boshqarish va baholash uchun qayta ko‘rib chiqiladi. O‘qituvchi talabalarga o‘z qiziqishlari va til qobiliyatlari darajasiga moslashtirilgan materiallarni tanlashda yordam beradigan murabbiy bo‘lishi kerak.

Interfaol onlayn platformalar va ta’lim o‘yinlari kabi innovatsion didaktik vositalardan foydalanish o‘qituvchilarga talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish imkonini beradi. O‘qituvchi ispan tilida fikr almashish, munozaralar va jamoaviy ish uchun sharoit yaratadigan o‘quv tadbirlarining tashkilotchisi bo‘ladi.

Ispan tili o‘qituvchilari ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlarning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqot faoliyatiga tobora ko‘proq jalb qilinmoqda. Bunday faoliyat ularga o‘quv jarayonini dolzarb ma’lumotlar va voqealar bilan boyitish, shuningdek, talabalarning haqiqiy ispan jamoalari bilan muloqotini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Virtual ekskursiyalar va real vaziyatlarni simulyatsiya qilish kabi innovatsion didaktik vositalardan foydalanish talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchi turli xil ijtimoiy-madaniy ssenariylarda til amaliyoti uchun kontekstni ta’minlab, yordamchi rolini o‘ynaydi.

Zamonaviy ispan tili o‘qituvchisi nafaqat chet tilni mukammal bilishi, balki talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion didaktik vositalardan faol foydalanadigan innovator, tadqiqotchi va murabbiy bo‘lishi lozim. Individualizatsiya, faol ishtirok etish, tadqiqot faoliyati va ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga e’tibor ispan tilini o‘qitish kontekstida o‘qituvchining zamonaviy rolidagi asosiy elementlarga aylanadi.

Tadqiqotlarimiz va tahlillarimiz natijasida quyidagi asosiy xulosalar qilingan:

1. O‘qituvchining roli o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. O‘qituvchi talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda markaziy rol o‘ynaydi, shuningdek, ularga ispan madaniyati va tilini o‘rganish uchun yo‘nalish beradi.

2. Innovatsion didaktik vositalar ta’lim tajribasini boyitish uchun kuchli vositadir. Ular ijtimoiy-madaniy jihatlarni chuqur tushunishga yordam berib, ispan tilini yanada interfaol va sermazmun tarzda o‘rgatishlari mumkin.

3. O‘qituvchilar o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga faol moslashishlari va zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga olib kirishlari kerak. O‘qituvchilarga yangi usul va vositalarni o‘rgatish ta’lim maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zaruratga aylanadi.

4. Ispan tilida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy dunyoda, ayniqsa, madaniyatlararo aloqalar sohasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu kompetentlik yanada samarali muloqot qilishga va global madaniy xilmaxillikni tushunishga yordam beradi.

THE PROBLEM OF USING INNOVATIVE DIDACTIC TOOLS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE SPANISH LANGUAGE

Anastasiya A. Tkacheva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2023. 6(74). 43–55.

[1]Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand, 140100, str. Bustonsaroy, 93. (Uzbekistan). E-mail: ssifl_info@mail.ru

Keywords: sociocultural competence, the role of the teacher, innovative didactic tools, interactive learning, multimedia resources.

This research focuses on examining the changing role of the teacher in the context of utilizing innovative didactic tools to enhance students’ sociocultural competence in Spanish language education. The primary objective of this study was to investigate the impact of these tools on both the teacher’s instructional approach and students’ language learning experience. To achieve this, a mixed-methods approach was employed, combining qualitative data from classroom observations, teacher interviews, and student questionnaires.

The findings of this study highlight a significant shift in the teacher’s role within the classroom. The traditional model of the teacher as the sole source of knowledge and information has evolved into a facilitator of student-centered learning. As facilitators, teachers created a supportive environment that encouraged active student participation and independent problem-solving skills. Additionally, they assumed the role of moderators, guiding discussions, and collaborative projects while providing meaningful feedback to students. This change in the teacher’s role fostered a more interactive and engaging learning experience for students.

Moreover, this study also assessed the effectiveness of innovative didactic tools. The results indicated that the use of these tools positively influenced the development of sociocultural competence among students learning Spanish. Students who engaged with these tools exhibited higher levels of intercultural sensitivity, adaptability to different cultural contexts, and the ability to effectively communicate in Spanish. The utilization of innovative didactic tools fostered a deeper understanding of the Spanish culture, thus motivating students to learn the language more effectively. The author considers the impact of these innovative methods on the learning process and show how teachers play a key role in the effective use of

these tools for the development of socio-cultural competence of students.

Furthermore, both students and teachers expressed overall satisfaction with the implementation of innovative didactic tools. Student questionnaires revealed positive attitudes towards the integration of these tools and the changes in the teacher's instructional role. Teachers also endorsed the benefits of incorporating innovative methods, citing ease of use and their usefulness in enhancing students' learning experiences.

In conclusion, this study demonstrates the transformation of the teacher's role in the context of employing innovative didactic tools to promote students' sociocultural competence in Spanish language education. The results highlight the effectiveness of these tools in achieving educational goals and showcase the satisfaction of both students and teachers. This research contributes to the ongoing discussion on effective instructional practices, emphasizing the importance of adapting teaching methods to foster students' language proficiency and intercultural understanding.

References:

1. Douglas, D. & Frazier, S. (2001) Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy (2nd ed.).: H. Douglas Brown. *TESOL Quarterly.* 35(2). Pp. 341-342. DOI: 10.2307/3587655.

2. Eaton, S.E. (2010) Global Trends in Language Learning in the 21st Century. Calgary: Onate Press. [Online]. URL: (Date of Access: 26.06.2023)

3. Atay, D., Kurt, G., Camlibel, Z., Ersin, P., Kaslioglu, O. (2009) The Role of Intercultural Competence in Foreign Language Teaching. *Inonu University Journal of the Faculty of Education*. Special Issue. Vol. 10. Issue 3. Pp. 123-135.

4. Kern, R. (2006) Perspectives on Technology in Learning and Teaching Languages. *TESOL Quarterly*. 40 (1). Pp. 183-210. DOI: 10.2307/40264516

5. Vlachopoulos. D., Makri. A. (2017) The effect of games and simulations on higher education: a systematic literature review. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. No (14)1. Pp. 1-33. DOI:10.1186/s41239-017-0062-1

6. Guaqueta, C., Castro-Garces, A. (2018) The Use of Language Learning Apps as a Didactic Tool for EFL Vocabulary Building. *English Language Teaching.* Vol. 11. No 2. Pp. 61-71. DOI: 10.5539/elt.v11n2p61

7. Cabrero Almenara, J., Marin Diaz, V., Sampedro-Requena B. (2016) Meta-analysis of research in e-learning published in Spanish journals. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. Vol.13. No 25. Pp.1-17. DOI 10.1186/s41239-016-0023-0

8. (2015) Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press.

9. Haleem A., Javaid M., Qadri M., Suman R. Understanding the role of digital technologies in education: A review. *Sustainable Operations and Computers*. 3(2022). Pp. 275-285.

10. Polly, D., Martin, F., Guilbaud T.C. (2021) Examining barriers and desired supports to increase faculty members' use of digital technologies: perspectives of faculty, staff and administrators. *Journal of Computing in Higher Education*. 33 (1). Pp. 135-156.

Muallif haqida ma'lumot

TKACHEVA Anastasiya Aleksandrovna – filologiya fanlari nomzodi, Samarqand davlat chet tillar instituti ispan va italyan tillari kafedrasi dotsenti. E-mail: anastasi72@yandex.ru